



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Qurbanova Marg'uba

O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY
OMMALASHTIRISH VOSITALARI 13-15

Polvanov Azim Kuchkarovich

AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING
MANBALARDА YORITILISHI 16-21

Esnazarova Zulfiya Baltashovna

QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI
(1873 – 1924) 22-27

Axmedov Shaxzod Farxon o'g'li

O'ZBEKİSTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLİYATI TARİXİDAN
(1991 – 2017-yillar) 28-36

Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid

IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDİJONLIK RAHBAR
XODİMLARNING ISHTIROKİ 37-43

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li

XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI 44-47

Asadova Ra'no Baymanovna

INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM
INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN
(CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) 48-52

Esanova Nilufar

1991-2024 YILLARDA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASINING SANOAT
SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA İSTIQBOLLAR
(HINDİSTON VA XİTOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) 53-56

Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li

O'ZBEK XONLİKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON
O'RТАSIDAGI SIYOSIY ALOQALAR 57-64

Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li

HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI
AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA 65-70

Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT
SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI 71-74

Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich

MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMİR
YO'LİNİNG QURILISHI VA UNİNG IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI 75-80

O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li

ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKİSTON SANOATI 81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov</i>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH	89-98
<i>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi</i>	
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:	
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI?.....	99-104
<i>Xakkulov Akbar Uralovich</i>	
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI	105-111
<i>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:	
AVTOKRATIK RAHBARLAR	112-117
<i>Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna</i>	
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI	
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	118-125
<i>Yangiboyev Rustam Berdiyarovich</i>	
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	126-131
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN	
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK	
XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	132-143
<i>Eshqobilova Nigoraxon, Qurbanova Safiyabonu</i>	
DAVLAT BUDGETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING	
NAZARIY ASOSLARI	144-150
<i>Umronov Eldorbek Sodirovich</i>	
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING	
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI	151-159
<i>Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz</i>	
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY	
IN UZBEKISTAN	160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ahmedova Dilrabo</i>	
YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY	
JARAYONLARNING TA'SIRI	173-177
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING	
FALSAFIY TAHЛИLI	178-184
<i>Kurbanaliyev Ural Xatamovich</i>	
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH	
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI	185-189
<i>Soipova Mayjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI	190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i>	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i>	
O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i>	
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i>	
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i>	
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i>	
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizoitovich</i>	
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i>	
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i>	
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i>	
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i>	
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANТИRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i>	
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i>	
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanova</i>	
A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i>	
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i>	
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i>	
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i>	
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoj</i>	
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI T AHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i>	
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejvaliyevna</i>	
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i>	
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i>	
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i>	
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i>	
BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i>	
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyorova Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING
PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ
ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARQ'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO
MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'YI INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):
MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI
TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKİSTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ
СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ
В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmira

TALABALARDA TAHLILII FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMI LI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS
FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i>	
GLOBALASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM	
YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA	
AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i>	
TEXNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL	
ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Abdullaeva Dilgora Ulugbekovna</i>	
AKTUAL'NYIE PROBLEMY PREPODABANIIA PRAVOVYX DISCIPLIN	
W TEKHICHESKIH VUZAX	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i>	
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA	
RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i>	
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS	
IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i>	
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIIYASINI OSHIRISH:	
GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazliddinov Muhammadali</i>	
SUN'YI INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI	
ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI	
MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN	
ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV	
METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART	
TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI	
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY	
YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI	
SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PIRLS)GA	
TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT	
TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i>	
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i>	
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

SOME ISSUES OF THE BALANCE BETWEEN CRIME AND PUNISHMENT IN BURHANUDDIN MARGIYONI'S WORK "HIDAYA"

Nuriddinov Ismoil Ulmas ugli

Republic of Uzbekistan

Academy of Law Enforcement

Master's degree student

Abstract. This article analyzes the norms concerning the balance of crime and punishment in Burhanuddin Margiyoni's work "Hidayah." The main focus of the article is to explore the connection between issues of crime and punishment with the principles of justice, moral-ethical values, and modern legal systems. The principles related to crime and punishment in "Hidayah" are examined, including the role of qasas (retribution), diya (compensation), and hadd punishments, as well as their relevance in the modern legal context.

Keywords: "Hidayah" work, crime, punishment, justice, law, fiqh.

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

magistratura tингlovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida jinoyat va jazo muvozanatiga oid normalar tahlil qilinadi. Maqoladagi asosiy e'tibor jinoyat va jazo masalalariningadolat, ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlar va zamonaviy huquqiy tizimlar bilan aloqasini aniqlashga qaratiladi. "Hidoya" asarining jinoyat va jazo masalalariga oid tamoyillari, qasos, diya va had jazolarining o'rni, shuningdek, ularning zamonaviy huquqiy kontekstdagi dolzarbliji o'zgacha o'rganiladi.

Kalit so'zlar: "Hidoya" asari, jinoyat, jazo,adolat, huquq, fiqh.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N68>

Kirish. Burhonuddin Marg'iyoniy o'rta asr Movarounnahrning buyuk huquqshunos olimlaridan biri sifatida tanilgan. Uning "Hidoya" asari hanafiy fiqhining asosiy manbalaridan biri bo'lib, unda jinoyat va jazo muvozanatiga oid normalar alohida o'rinn tutadi. Ushbu masalalaradolat tamoyiliga asoslangan bo'lib, ularning dolzarbliji nafaqat tarixiy, balki zamonaviy huquqiy tadqiqotlar nuqtai nazaridan ham muhimdir. "Hidoya"da jinoyat va jazo orasidagi muvozanatadolatga asoslanadi. Jazo jinoyatning og'irligiga muvofiq bo'lishi, lekin insonparvarlik va rahm-shafqat tamoyillarini ham inobatga olishi ta'kidlanadi. Bu prinsip bugungi kunda ham jinoiy adliya tizimlarida muhim bo'lib, retributiv (qasoskor) va rehabilitatsion (isloq qiluvchi)adolat orasidagi muvozanatni ta'minlashda dolzarbdir.

"Hidoya" asarida jinoyat va jazo bilan bog'lik qoidalarni o'rganish ilmiy va hayotiy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda insonparvarlik,adolat, qonuniylik, xalqchillik tamoyillarini

o'zida mujassamlashtirgan qonunlarni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida fiqhdagi ayrim me'yorlardan ham samarali foydalanish mumkin.

Jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida jinoyatchilikka qarshi kurashning yangi usullari amaliyotga tatbiq qilinayotgan, ayniqsa, sud-huquq tizimini isloh etish izchil va uzlusiz davom etayotgan bir sharoitda islom huquqidagi jinoiy javobgarlik masalalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki islom huquqida jinoyatning oldini olish, turli jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jazo tayinlash kabi ko'plab e'tiborga molik jihatlar borki, ular hozirgi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning huquqiy jihatdan boyishiga ko'maklashadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mazkur Qomusning mohiyatida "o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilgani" ham e'tirof etilgan.

Mazkur tadqiqot islom huquqidagi jinoyat va jazo masalalarini nazarda tutadi. Qayd etish o'rinniki, "Hidoya" asariga ko'ra islom huquqi (fiqh)ni tarkibiy tuzilish jihatdan uch qismga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisi, ibodatlarga taalluqli masalalar, ya'ni Allah bilan bandalari o'rtasidagi munosabatlarga oid qonun-qoidalar; ikkinchisi, muomala masalalari, ya'ni insonlar o'rtasidagi, shuningdek davlat hokimiyatining fuqarolar bilan munosabati hamda boshqa davlatlar bilan o'zaro aloqalari; uchinchisi esa javobgarlik va jazo masalalari.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qur'onda diniy-axloqiy yo'l-yo'riqlar bilan bir qatorda, huquqiy tizim xam aks ettirilgan. Ammo uni qonunlar majmuasi deya olmaymiz, chunki u diniy va huquqiy masalalarni o'zaro chambarchas bog'lagan keng qamrovli muqaddas, ilohiy kitob — Kalomullohdir.

Juzjoniyning ta'kidlashicha, Qur'oni karimda huquqiy masalalarga oid 333 ta oyat bo'lib, ulardan ibodat masalasida 140 ta, shaxsiy huquqqa oid -70 ta, jinoyat va jazo masalalarida — 30 ta, sud jarayoni bo'yicha — 20 ta, davlat huquqiga oid masalalarda 3 oyat mavjud [1].

Islom huquqshunosligida jinoyat tushunchasining asosini diniy g'oyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqiy qonun-qoidalar tashkil etadi. Shuning uchun ham musulmon huquqida jinoyat tushunchasini tahlil etishga alohida yondashish lozim.

Fiqhga oid umumiy bo'lgan ta'limalarga ko'ra, jiddiy hisoblangan xar qanday gunoh, jinoyat musulmon taqiqlarini buzganlik uchun jazoga loyiq xatti-harakatlar sifatida qaralishi kerak. Uning mohiyati islomning din, hayot, aql-idrok, avlodlar davomiyligi va mulkka egalik kabi besh prinsiplari (umuminsoniy qadriyatları) himoyasiga qaratilgan huquqiy tamoyillar va qonun-qoidalarda o'z ifodasini topgan.

Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida jinoyat deb, qonun tilida shaxsga va mulkka qarshi qaratilgan qonun bilan taqiqlangan qilmish tushuniladi deb ko'rsatilgan.

Hozirgi davr milliy jinoyat huquqi fani nazariyasidan ma'lumki, har bir jinoyat to'rtta tarkibiy belgidan: jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomonidan tashkil topgan.

Musulmon jinoyat huquqidagi jinoyat turlarini o'rganib, uni tahlil qilganda qayd etilgan jinoyatlar tarkibida to'rtta belgi mavjud ekanligi g'oyatda diqqatga sazovordir.

Islom ta'limalarida jinoyat turlarining tushunchalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan va tasniflangan. Shu asosida har bir jinoyatga individual jazo belgilangan.

Islom huquqini jinoyat huquqi bilan bog'liq qoidalar bilan tahlil qilsak, ularning har biri zamonaviy jinoyat huquqiga o'xshash jinoyat tarkibidan tashkil topganligiga guvoh bo'lamiz.

Jinoyat tarkibining asosiy elementlaridan biri **jinoyat obyekti**dir.

Aniqroq ifodalaganda shaxsning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof jinoiy qilmishi qanday maqsadga qaratilganligi, ya'ni tajovuz qaysi ijtimoiy munosabatlarni buzishga yo'naltirilgan bo'lsa, shu munosabat jinoyatning obyektini tashkil etadi.

Ma'lumki, shaxsning har qanday turdag'i ijtimoiy xavfli qilmishi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanuvchi u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilib, zarar yetkazadi. Shuning uchun ham biror-bir munosabatni jinoyat obyekti deb aytish uchun shaxsni jinoiy qilmishi faqatgina jinoyat qonunlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishga qaratilgan bo'lishi shart. O'z navbatida har qanday ijtimoiy munosabatlar ham jinoyatning obyekti bo'lavermaydi.

Ammo jinoyat obyekti va predmeti o'zaro uzviy bog'liqligini ham unutmasligimiz lozim. Jinoyat obyekti — bu ijtimoiy munosabatlar bo'lsa, jinoyatning predmeti esa moddiy buyum, ashyo hisoblanadi.

Islom huquqi bo'yicha jinoyatlarning umumiyligi obyekti din va davlat asoslari, shaxsning hayoti, sog'ligi, qadr-qimmati, nomusi, mulkning turli shakllari, ayniqsa, xususiy mulklar, jamoat tartibi va xavfsizligi, diniy qoidalar, savdo-sotiq tartib-qoidalari, odil sudlov asoslari va boshqa qator ijtimoiy munosabatlar bo'lishi mumkin.

Tarixiy kelib chiqishi, tajovuz obyekti va jazo belgilanishiga qarab, islom huquqiga oid jinoyatlarni uch guruhga bo'lishi mumkin.

Birinchi guruhga Allohnning haqqi va islom jamiyatining manfaatlariga tajovuz qilishga qaratilgan o'ta og'ir jinoyatlar: zino, o'g'rilik, bosqinchilik, yo'lto'sarlik, hamr va boshqa mast qiluvchi narsalar iste'mol qilish, dalil-isbotsiz zino qilishda ayblash — ya'ni tuhmat, dindan qaytish va isyon kiradi. Bunday jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan — "xad" jazosi belgilangan.

Ikkinci guruhga — shaxslarning hayoti, sog'lig'iga qarshi qaratilgan, ya'ni odam o'ldirish va tan jarohati yetkazish jinoyatlari kiritilgan. Ularni sodir qilgan aybdor shaxslarga "jinoyatga teng jazo" tamoyili asosida jazo qo'llaniladi. Ammo islom huquqi manbalarida bu guruhga kirgan jinoyatlar uchun ko'zda tutilgan jazoni birmuncha yumshatish haqida so'z yuritilanini ko'rish mumkin. Ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti, islom qonunchiligining takomillashib borishi va rivojlanishi natijasida ba'zi bir xollarda qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun "qasos" olish, ya'ni o'lim jazosini tayinlash o'rniga, jabrlanuvchi kechirgan taqdirda, uni o'zaro tinch-totuv, do'stona kelishuv asosida qonun bilan belgilangan tartibda "tovon" to'lash kabi yengilroq turdag'i jazo bilan almashtirilishiga ham ruxsat berilgan. Tovon to'lovi uchun kafillik mas'uliyati (javobgarlik) esa jinoyatchining qarindoshlari yoki jamoasi (oqillari) zimmasiga yuklatilgan.

Va nihoyat, uchinchi guruhni tashkil etuvchi jinoyatlarga o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarga qarshi jinoiy tajovuz qilishga qaratilgan jinoyatlar, jumladan, kam o'lchash, kam tortish, tovlamachilik qilish, poraxo'rlik, xazina yoki yetimning haqini o'zlashtirish, qonunga xilof xolda qasddan sud qarorlarini chiqarish, jamoat joylarida yurish-turish qoidalari mensimaslik, fuqarolarga yoki o'ziga bo'y sunuvchilarga nisbatan zulm o'tkazish, davlat mulkini turli xil noplari yoki o'ziga bo'y sunuvchilarga nisbatan zulm o'tkazish, davlat mulkini turli xil noplari yoki o'ziga bo'y sunuvchilarga nisbatan zulm o'tkazish, davlat mulkini turli xil noplari yoki o'ziga bo'y sunuvchilarga nisbatan zulm o'tkazish, bitimlar

yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik, xun uchun tovon to'lamaslik, nafaqa to'lash majburiyatidan qasddan bosh tortish va hokazolar kiritiladi.

Bu jinoyatlar uchun musulmon davlatlarining nufuzli hokimiyat idoralari tomonidan joriy etilgan **ta'zir jazo turlarini qo'llash** ko'zda tutilgan.

Jinoyat qonun bilan qo'riqlanadigan obyektga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning tashqi holatini xarakterlovchi belgilar **jinoyatning obyektiv tomonini ifoda etadi**.

Harakat yoki harakatsizlik qonun tomonidan qo'riqlanadigan obyektga qarshi qaratilgan, ya'ni ijtimoiy xavfli bo'lsagina jinoyat hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfli bo'lmasa harakat yoki harakatsizlik unda jinoyat belgilari bo'lmasanligi tufayli jinoyat hisoblanmaydi.

Qilmishning obyektiv tomoni bo'lmasa, jinoyatning obyektiga tajovuz ham bo'lishi mumkin emas, subyektning ongida xatti-harakatning obyektiv belgilarini aniq gavdalantiruvchi subyektiv tomon ham bo'lmaydi va jinoyatning subyekti ham bo'lmaydi. Jinoyatning boshqa elementlari bilan birgalikda, uning obyektiv tomoni jinoyatchi sodir etan aybning darajasini aniqlaydi va unga nisbatan belgilanadigan jazo choralarining xarakteriga ta'sir ko'rsatadi.

Islom huquqshunosligida ham sodir etilgan jinoiy qilmishning obyektiv tomonini tavsiflovchi qator belgilari mavjud. Misol uchun, o'g'rilik, bosqinchilik (yo'lto'sarlik), zino, zinokorlikda ayblash hamda boshqa qator jinoyatlar tarkibining obyektiv tomonini tahlil qilganimizda ularning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof harakatlardan iborat ekanligini ko'ramiz. Qayd etilgan jinoyatlar bir-biridan, asosan, qilmishning xususiyati bilan, mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar esa bir-biridan mulkni qonunsiz egallash usuli, ya'ni jinoyatning obyektiv tomoni bilan farq qiladi.

Jumladan, o'g'irlilikda mulk xufiyona tarzda olinsa, bosqinchilikda ma'lum moli, joni saqlangan shaxs ustiga yo'lto'sarlik (bosqinchilik) qilib bostirib boriladi, zinokorlikda ayblashda esa pok, ozoda, kishini ochiqdan-ochiq zinokorsan deb turli nojo'ya so'zlar bilan haqoratlaydi va or-nomusi hamda g'ururini oyoq osti qiladi.

Zinoda esa nikoh yo mol jihatidan qaram bo'lmasan bilan jinsiy yaqinlik qilishdan iborat harakatni ko'zda tutiladi. Demak, yuqorida sanab o'tilgan jinoyatlar bir-biridan obyektiv tomoni belgilari bilan farqlanadi.

Islom huquqi manbalarida qayd etilishicha, zinokor deb haqoratlash jinoyatning obyektiv tomonini tavsiflovchi belgilarga quyidagilar: aybdor tomonidan "zino qilding", "zinokorsan" yoki "zinodan tug'ilgansan" yoinki "sen o'z otangdan emassan", "sen falonchining o'g'li emassan", shuningdek, vafot etgan kishini "zinokor edi" qabilidagi iboralar ishlatilib, insonning sha'ni va qadr-qimmatini kansituvchi so'zlar aytigandagina uning qilmishi jinoyat deb tan olingan.

Fiqhda o'g'rilik, bosqinchilik (qaroqchilik), odam o'ldirish va tan jarohati yetkazish kabi qator moddiy jinoyatlarda jinoiy oqibatning yuz berishi ko'zda tutilgan. Masalan, odam o'ldirishdagi jinoiy oqibat jabrlanuvchining hayoti bo'lsa, o'g'rilik, bosqinchilik, talonchilik, mulkni o'zlashtirish yo'llari bilan talon-toroj qilishda esa mulkiy xarakterdagi zarar yetkazish ko'zda tutilgan. Chunki bu jinoyatlarda zararli oqibat kuzatilmasdan, ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning o'zi qilmishning obyektiv tomonini ifodalaydi.

Musulmon jinoyat huquqida ham ba'zi bir jinoyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholashda ular obyektiv tomonining zaruriy va fakultativ belgilarini aniqlashga katta ahamiyat berilgan.

Jumladan, o'g'irlangan mol-mulk hovli, uy, sandiq kabi joylarda saqlanayotgan, ya'ni qo'riqlanadigan joyda bo'lishi talab qilingan. Shuningdek, ko'chaga qo'ygan bo'lsa-da, qo'riqlanadigan mulk o'g'irlansa ham had jazosi qo'llanilgan.

Ko'riniB turibdiki, musulmon jinoyat huquqida ham jinoyatlarning obyektiv tomonini tavsiflovchi qator belgilarni aniqlash, bir jinoyatni ikkinchisidan farqlash va qozilar amaliyotida jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilib, adolatli hukm chiqarish ko'zda tutilgan.

Muhokama. Ma'lumki, jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan biri — **jinoyatning subyekti** hisoblanadi.

Shunga ko'ra islam jinoyat huquqida ham ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan jismoniy shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi, boshqacha qilib ifodalaganda jinoyatning subyekti bo'ladi.

Islom huquqida jinoyat subyektini aniqlash, biror-bir shaxs tomonidan sodir etilgan jinoiy qilmishni tasniflash, uni huquqiy jihatdan to'g'ri baholash, ba'zan esa aybdorni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod etish masalasini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Unda ta'kidlanishicha, har qanday jismoniy shaxs emas, balki es-xushi joyida, o'z qilmishiga o'zi javob bera oladigan, ya'ni o'z yurish-turishining mohiyatini tushunadigan va o'z xatti-harakatini idora qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, aqli raso shaxslargina jinoyatning subyekti hisoblanadi. Shaxsni aqli noraso deb e'tirof etish uning aybini va unga belgilanishi lozim bo'lgan jazoni inkor etadigan holat sanaladi. Jumladan, "Hidoya"da aqli raso, balog'at yoshidagi odam o'n dirham pul yoki uning qiymati barobaridagi narsani o'g'irlagani isbotlansa, qo'li kesiladi", deb qayd etilgan [2].

Demak, jinoyat subyekti nafaqat aqli raso shaxs bo'lishi, balki uning ma'lum bir yoshga, ya'ni voyaga yetgan bo'lishi ham shart ekanligi ko'rsatilgan. Yana "norasida va ruhiy kasallikka chalingan shaxslar bolig'a (voyaga yetgan) ayol bilan zino qilsalar" shuningdek, agar qaroqchilar ichida norasida yoki aqli noraso yoki mahrami (bunda ayol kishi ko'zda tutilgan) bo'lsa, hammasi had jazosidan ozod qilinadi", deb qayd etilgan bo'lib, bunda aqli noraso, voyaga yetmaganlar va ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilganda, had turidagi jazo qo'llanilmasligi ko'zda tutilgan.

Fransuz olimi Sharl Reno "musulmon jinoyat huquqida jinoyatning subyekti tushunchasi batafsil yoritilanligini yuqori baholab, musulmon huquqiga binoan es-hushi joyida bo'lgan, din va fuqarolik huquqi nuqtai nazari talab qilgan darajada o'z qilmishi uchun javob bera oladigan shaxs har bir xatti-harakati uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Es-xushning yo'qolishiga sabab bo'ladigan savdoyilik ham (aqli norasolik) javobgarlikdan ozod qiluvchi holat sanaladi" [3], degan.

Ta'kidlash lozimki, musulmon jinoyat huquqida aqli zaiflar, go'daklar, xotirasi sust, seruyqu va gung (tilsiz) kishilar aqli norasolar qatoriga kiritilgan. Masalan, tilsiz, yozuv va ishora bilan o'ziga javob vojib bo'ladigan darajadagi ishga, misol uchun, zino, hamr (aroq) ichish, o'g'rilikka iqror bo'lsa, jazo berilmagan va qo'li kesilmagan" [4], deb qayd etilgan.

Islom huquqshunosligida jinoyat subyektining o'z aybiga iqror bo'lishi uni javobgarlikka tortish uchun muhim dalil hisoblansa-da, iqrorlik avval mukammal o'rganib chiqilgach, ya'ni sodir etilgan jinoyatning joyi, vaqt, usuli, turi, aloqadorligi, jinoyat predmetlarini to'g'ri

tasvirlab berishi (masalan, o'g'irlangan mulkni) va hokazolarni to'g'ri tasvirlab bergach ishga aloqadorligi tasdiqlansagina shaxs javobgarlikka tortilgan.

Islom huquqshunosligida balog'at yoshi qizlar uchun — 9, o'g'il bolalar uchun — 12 yosh qilib belgilangan. Lekin 9 va 12 yosh voyaga yetganlikni belgilovchi eng kichik yoshlar bo'lib, musulmon huquqida umumiy balog'at yoshi 15 yosh deb belgilangan. Demak, 15 yoshga to'lib jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish, ya'ni jazolash mumkin bo'lган.

Jinoyatning subyektiv tomoni shaxsning ijtimoiy xavfli harakat va harakatsizligiga, shuningdek, undan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatlarga bo'lgan ruhiy (psixik) munosabatdir.

Jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgilari qasd yoki ehtiyoitsizlikdir.

Islom jinoyat huquqiga oid o'rganilgan qator ilmiy-nazariy asarlarda jinoyatning subyektiv tomonini xarakterlovchi asosiy belgi aybning mavjudligi, shuningdek, qasddan sodir etilgan jinoyatlar esa ma'lum motiv va maqsad bilan sodir qilinishi nazariy jihatdan chuqr o'rganilganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning nazariy jihatlarini huquqshunos olimlar quyidagicha talqin etganlar.

Fiqhda odam o'ldirish jinoyatining o'zi aybning shakliga qarab bir necha turlarga bo'lingan.

Jumladan, "Hidoya" asarida bu jinoyat 5 turga bo'linib, tahlil etilgan.

- qasddan odam o'ldirish;
- qasdga o'xhash o'ldirish;
- beqasd (bilmay) o'ldirish;
- Beqasdga (bilmasdan) o'xhash o'ldirish;
- Sababli qotillik [5].

Qasddan qilinadigan qotillik deb, qurol yoki shunga o'xhash temir yoki yog'och yoxud olov bilan birovni ataylab (qasddan) o'ldirishga aytildi [6].

Jinoyatchi o'ta og'ir jinoyatni sodir etgan va og'ir gunohkor deb hisoblanadi. Demakki, bu turdag'i odam o'ldirishni sodir etishda jinoyatchi o'z harakatining ijtimoiy xavfli ekani bilgan va huquqqa xilof jinoiy oqibatlariga ko'zi yetadi hamda shu oqibatlar yuz berishini istaganligi muhim o'r'in tutadi. Bunda ayb to'g'ri qasddan iborat bo'ladi.

Islom huquqida bu jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori sanalgan, chunki bu bilan "qasos" huquqi ham tug'iladi, ya'ni: o'ldirilmish o'rniga o'ldiruvchini o'ldirish zarur bo'lur [7].

"Qasdga o'xhash qotillik, Abu Xanifa fikricha, deyilgan "Hidoya" asarida, — qurol va uning o'rniga o'tadigan narsalar bilan emas, boshqa narsa bilan qasddan urib o'ldirishdir. Abu Yusuf bilan Shofi'iy odatda o'ldirish uchun ishlatilmaydigan narsa bilan urib o'ldirishdir, deb ko'rsatganlar" [8].

Shaxsning sog'ligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar ham musulmon huquqshunoslari tomonidan ikki toifaga — aybning qasd va ehtiyoitsizlik shakllariga bo'lib tasniflangan, o'z navbatida yetkazilgan jarohatlarning yengil va og'irlik darajasiga qarab, ular ham bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, Abu Yusuf kishining bosh qismiga yetkazilgan jarohatlarni og'irlik darajasiga qarab, turga bo'lib huquqiy jihatdan baholagan. Chunonchi, kishining bosh qismi bir oz yorilib qon oqishiga sabab bo'lgan jarohat; boshdagi go'sht qismining bir oz kesilishi; bosh go'shtining chuqurroq kesilishi; bosh suyagiga kadar yetkazilgan chuqr jarohat: bosh suyagini yorilishiga sabab bo'lgan jarohat; bosh suyakning sinishiga sabab bo'lgan jarohat va

nihoyat, bosh miyaga yetkazilgan jarohat natijasida kishi aqli zaiflanishiga sabab bo'lgan holatlar, deb tushuntiradi. Uning fikricha, birinchi to'rt xil jarohatlar qasddan yetkazilgan bo'lsa, ularning yengil darajada ekanini hisobga olib, qasos — teng jazo qo'llanilgan, keyingi uch xili og'ir va kishi hayoti uchun xavfli bo'lgani sababli qasosga yo'l qo'yilmasdan og'ir tovon haqi to'lash jazosi ko'zda tutilgan [9].

Xulosa. Yuqorida ko'rsatilgan holatlar tahlilidan kelib chiqadigan bo'lsak, islom huquqida ham jinoyat tarkibining subyektiv tomonini xarakterlovchi belgilarni aniqlash, ya'ni shaxs tomonidan jinoyat sodir etishda aybning qasd yoki ehtiyoitsizlik shakllarining mavjudligini aniqlash, ijtimoiy xavfli qilmishni huquqiy jihatdan to'g'ri baholashda xatoga yul kuymaslik, jazo tizimining to'g'ri qo'llanilishi islom huquqshunoslarining diqqat markazida bo'lgan.

Shuningdek, islom huquqiga tegishli nazariy manbalarda murakkab aybli jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga alohida e'tibor berilgan.

Murakkab aybli jinoyatlarga islom huquqidan quyidagi misolni keltirish mumkin. Shaxsga yetkazilgan ikkita jarohatdan bittasi qasddan, boshqasi esa ehtiyoitsizlik orqasida yetkazilsa-yu shu jarohatlar jarohatlangan kishining o'limiga sabab bo'lsa, bunda aybdorning yaqin qarindoshlari yarim tovon haqini, aybdorning o'zi esa o'z mablag'i hisobidan qolgan yarim tovon haqini to'lagan. Agar shu shaxsga qasddan yetkazilgan jarohat tuzalib ketsa-yu, ammo u beqasd yoki ehtiyoitsizlikdan yetkazilgan jarohat ta'siri sababli o'lgan bo'lsa, aybdorning yaqinlari o'limga olib kelgan beqasd jarohat uchun to'liq tovon haqi to'laydi. Aybdorning o'ziga nisbatan esa qasddan yetkazilgan jarohatiga teng qasos olish jazosi qo'llanilgan. Agarda u holatning aksi bo'lib, ya'ni jarohatlangan shaxsning beqasd jarohati tuzalgan bo'lib, qasddan yetkazilgan jarohat sababli o'lgan bo'lsa, bunda aybdordan qasddan odam o'ldirgani uchun qasos olingan, uning yaqinlari esa beqasd jarohatning tovoni to'lagan [10].

Xulosa qilib aytganda, islom jinoyat huquqi nazariyasida ham biror-bir bevosita obyektga qarshi qaratilgan jinoyatlarning subyektiv tomonini chuqur tahlil qilish, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab bir necha turlarga bo'lingani aybdorlarning jinoiy qilmishiga psixik munosabatini huquqiy jihatdan to'g'ri baholash va jamiyat uchun ijtimoiy xavflilik darjasini yuqori bo'lgan jinoyatlarga qattiq jazo belgilash maqsadiga xizmat qilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Juzjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi, Xanafiy mazxabi va O'rta Oisyo faqihlari - T.: Toshkent islom universiteti, 2002. 64-65 b.
2. "Hidoya" 3-jild, T., "Hilol-Nashr" B. 218.
3. Шарл Рено, М.: Мусульманское право, 1959, 43-Б.
4. "Muxtasar", T., Cho'lpon, 1994, B.332.
5. "Hidoya" (arab tilida) 2-jild, Qozon, RF bosmaxonasi, B. 625.
6. "Hidoya" (arab tilida) 2-jild, Qozon, RF bosmaxonasi, B. 625.
7. "Muxtasar", T., Cho'lpon, 1994, B.304.
8. "Hidoya" (arab tilida) 2-jild, Qozon, RF bosmaxonasi, B. 626.
9. Абу Юсуф Яъкуб. Китаб ал-Харадж: Хрестоматия по исламу. М.: Наука, 1994, Б. 177.
10. Абу Юсуф Яъкуб. Китаб ал-Харадж: Хрестоматия по исламу. М.: Наука, 1994, Б. 177.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 5 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).